
TAYYOR VA YARIM TAYYOR MAHSULOTLARNI INVENTARIZATSIYA JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH

Sayidova Mehrinoz O'ktamjon qizi

Andijon mashinasozlik institute

IB va KT fakulteti K-19-20 guruh talabasi

sayidovag4@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tayyor va yarim tayyor mahsulotlarning inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish borasida qilingan ishlar yuzasidan so'z boradi. Shu jumladan, hozirgi kunda deyarli barcha avtosanoat korxonalarini, ta'lim muassasalari va tashkilotlarda inventarizatsiya jarayonlari dolzarb masala va muammo bo'lib kelmoqda. Tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish ya'ni mobil ilova orqali mahsulotlarni ro'yxatdan o'tkazish va sanog'ini bilish kabi chora-tadbirlarga asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:** inventarizatsiya, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar, avtomatlashtirish, skaner qilish, QR va shtrix kodlar.*

Kirish.

Inventarizatsiya- korxonada, muassasa, xo'jalik va shu kabilarning omborida turgan ashyolarning mavjudligini, qanday saqlanayotganligini, shuningdek, ombor xo'jaligi bo'yicha ma'lumotlarni davriy ravishda ro'yxatdan o'tkazish, yo'qlama qilishdir. Bu jarayon ko'p vaqt talab qiluvchi, ko'p sonli xodimlarni jalb etuvchi, shuningdek, alohida komisiya tuziluvchi va talaygina hujjat va hisobotlarni tayyorlashga qaratilgan tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Biroq inventarizatsiya jarayoni barcha xo'jalik tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi va o'rnatilgan tartibdagi xujjat va hisobotlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Shuning uchun bu jarayonni avtomatlashtirish deyarli barcha sanoat korxonalarini va xo'jalik subyektlari uchun katta ahamiyat kasb etadi [1].

- Inventarizatsiya jarayoni korxonadagi har bir mahsulot turlari bo'yicha alohida o'tkaziladi va quyidagilarga bo'linadi:
- har bir qurilma yoki detallarni mavjudligini aniqlash va ro'yxatdan o'tkazib, sanog'ini tekshirish;
- tugallanmagan ya'ni yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilishini ro'yxatdan o'tkazish;
- ularning haqiqiy va aniq miqdorlari va saqlanishini nazorat qilish;
- boshlang'ich sifatini to'liq yoki qisman yo'qotgan tovar va hom-ashyolarni qiymatini aniqlash;

- me'yoridan ortiqcha va ishlatilmagan materiallarni aniqlash; materiallarni va mahsulotlarni saqlash qoidalariga rioya qilinishini, shuningdek mashina, mexanizm va boshqa jihozlarni ishlatish qoidalariga amal qilishni tekshirish [2,3];

Yuqoridagi masalalarni yechish ancha vaqt, mablag' va bir talay ishchi kuchi ya'ni mutaxassislarni talab etadi. Bundan tashqari inventarizatsiya hujjatlari o'nlab ba'zida esa minglab varoqlardan iborat bo'ladi ya'ni ortiqcha qog'ozbozlik ishlari sodir etiladi va ko'p hollarda jarayon faqatgina inson omili orqali amalga oshirilgani tufayli talaygina xatoliklarga va tartibsizliklarga (noaniqliklarga) yo'l qo'yiladi va bu xatolar tufayli butun jarayon yana qaytadan amalga oshirilishi ham mumkin. Bu esa korxonaga iqtisodiy tarafdin ancha zarar keltirib chiqaradi. Shu muammolarni hisobga olib xulosa qilish mumkinki, inventarizatsiya jarayonini avtomtlashtirish, hozirgi raqamlashtirish davrida, inson omilini kamaytirish va vaqtni tejash singari ishlarda juda samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Hozirgi vaqtda inventarizatsiya jarayonlari 20 ga yaqin xodimlar tomonidan deyarli bir oy mobaynida amalga oshiriladi ya'ni bu jarayonga boshqa bo'lim xodimlari ham jalb etilib alohida komissiya tuziladi, shuning uchun bu davrda korxonalar vaqtincha ish davri to'xtatiladi. Xodimlar har bitta tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni ularning 9 yoki 17 xonali raqamlari orqali qog'ozga yoki kompyuterga tushirib borishadi va bunday mahsulotlar minglab bo'lishi ham mumkin va bu juda katta vaqt va kuch talab qiladi. Ya'ni inson omili orqali tartibsizlik va xatolar, ortiqcha qog'ozbozlik kabi muammolarga duch kelinadi.


Va bu jarayonni avtomtlashtirish 3 bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda har bitta tayyor va yarim tayyor mahsulotlarga maxsus tayyorlangan QR va shtrix kodlar xodimlar tomonidan yopishtiriladi; so'ngra ular mobil telefon orqali skaner qilinadi ya'ni o'qitiladi; skaner qilingandan so'ng mahsulotning barcha ma'lumotlari korxonaning tegishli ma'lumotlar bazasiga avtomatik tarzda yuboriladi va saqlab qo'yiladi. Inventarizatsiya jarayonini avtomtlashtirishning eng asosiy yutuqlaridan biri bu vaqtning iqtisod qilinishidir. Bundan tashqari, jarayonni avtomtlashtirish orqali quyidagi avfzalliklarni ko'rsatish mumkin: mehnat sarfini tejalishi; bu jarayonni foydalanuvchi istalgan vaqtda amalga oshirishi; konstavar mahsulotlari sarfini oldi olinishi; ma'lumotlarni bazada xoh vizual xoh qog'oz shaklida chop ettirib ko'rish imkoni borligi hujjatlardagi xato va noto'g'ri ma'lumotlarni tezkor aniqlash[4].

Natijalar



1-rasm. Xorijiy inventarizatsiya qurilmasi (TCD)

Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin. Chet elda inventarizatsiya jarayonini avtomatlashtirish uchun qanday yo'l tutiladi yoki u yerda haligacha inventarizatsiya jarayonlari avtomatlashtirilmaganmi? Albatta yo'q, u yerda ham inventarizatsiya jarayoni avtomatlashtirilgan, lekin biz yaratgan ilovadan farqli ravishda chet elda yuqoridagi rasmdagi maxsus TCD (TransCranial Doppler) qurilmasi orqali mahsulotlar ro'yxatdan o'tkaziladi. Albatta u qurilmadan bizning mamlakatimizda ham foydalansa bo'ladi faqat bir qancha noqulayliklar mavjud. Masalan, u qurilma juda ham qimmat va yoki olib kelingan taqdirda ham agarda buzilib ishdan chiqsa uni yana qayta buyurtma qilish kerak bo'ladimi? Ana shunday holatlarni hisobga olgan holda bizning ilovamizdan O'zbekistonning istalgan hududidan turib foydalansa bo'ladi, shuningdek, ilovaning Android va iOS operatsion tizimlarida ham foydalana olishlik ham bir qancha samarali hisoblanadi. Ya'ni aynan misol tariqasida Andijon viloyati Asaka tumanida joylashgan GM (General Motors) avtosanoat korxonasi ushbu inventarizatsiya jarayoni juda ham muammoli hisoblanib kelmoqda, va bizning asosiy maqsadimiz mamlakatimizdagi mavjud muammolar va qiyin holatlarni shu ilova yordamida hal qilish va O'zbekistondagi avtosanoat korxonalari, turli muassasa, tashkilotlar va fabrikalarni avtomatlashtirishdir[5].



2-rasm. Ilovaning ishchi (asosiy) oynasi.

Ilovaga har bir foydalanuvchi korxonaga yoki tashkilot tomonidan taqdim etilgan foydalanuvchi nomi va parol orqali kirish huquqiga ega, ya'ni faqat ruxsat etilgan xodimlarga ushbu ilovadan foydalana olishlari mumkin. Bu ilovaning to'liq holatdagi xavfsizligini ta'minlaydi. Korxonaning ma'lumotlar bazasi har tomonlama xavfsiz va juda ham tartibli holatda bo'lishini ta'minlaydi. Va agarda mahsulotlar soni ko'payib ketsa, avtomatik ravishda tegishli ma'lumotlar bazasi ya'ni omborlar soni ko'paytiriladi va har bir mahsulot o'z turiga mos ravishda ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli ma'lumotlar omboriga joylashtiriladi.



3-rasm. Ilovaning ishlashi, ya'ni skaner qilish jarayoni.

Ya'ni bizning ilovamizni amalda qo'llash uchun har bir tayyor va yarim tayyor mahsulotga maxsus shtrix kodli stikerlar yopishtiriladi va ular ushbu platforma orqali yuqorida ko'rsatilgan rasmdagi kabi o'qitiladi, va bu har bir insonning shaxsiy mobil

telefoni orqali amalga oshiriladi. O‘ylaymanki bu ish juda ham qulay va oson. Mavjud xorijiy analoglardan farqli ravishda hech qanday mablag‘ talab qilinmaydi ya’ni narx bilan bog‘liq muammolar yo‘qligi hamda ilova orqali mahsulotlarni oson identifikatsiyalash, offline va online tarzda foydalanish imkoniyatidir.



4-rasm. Joylashuv bo‘yicha ilovaning qo‘llanilishi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda mahsulotlarni inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish kam vaqt sarflash, xizmat ko‘rsatish va ish sifati sonining ortishi hamda kam xarajatlilikni ta’minlashga yordam beradi. Va bu orqali O‘zbekistondagi deyarli barcha avtosanoat korxonalariga juda kata foydali va samarali natijalar ko‘rsatiladi va mavjud iqtisodiy va ma’naviy zarar ko‘rishning oldi olinadi va jarayon to‘liq avtomatlashtiriladi, inson omili deyarli ishtirok etmaydi va xatoliklardan ancha holi bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Инвентаризацияни ташкил этиш ва ўтказиш. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти. 1999
2. Х.Н. Мусаев АУДИТ. Тошкент – Молия – 2033
3. В.В. Гладышев «Современные способы автоматизации процесса инвентаризации», ГУ-ВШЭ
4. Inventarizatsiya va uning asoslari. Toshkent. 1999-224 bet.
5. "Inventory Management and Production Planning and Scheduling" - Edward A. Silver, David F. Pike, Rayne Peterson
6. "Inventory Control and Management" - Donald Waters
7. "Inventory Management Principles: When You're Down to Four, Order More" - Paul Zikmund
8. "Fundamentals of Inventory Management" - Max Muller